

CHEK TILI GRAMMATIKASINI O‘RGANISH

Abduraxmonova Diana Aleksandrovna

Urganch davlat universiteti

Xorijiy-filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili)

Yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Chet tilida leksikani o‘rgatishda asosiy masala so‘z materialini xotirada saqlab qolish bo‘lsa, grammatikani o‘rgatishdagi asosiy qiyinchilik-so‘zlarning shakllarini o‘zlashtirish va gapda so‘zlarni biriktirish usullarini egallab olishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: grammatika, o‘rganish, mashqlar, metod, dars, qiyinchilik

Annotation: If the main issue in teaching lexis in a foreign language is to memorize word material, the main difficulty in teaching grammar is to master the forms of words and acquire the methods of connecting words in a sentence.

Key words: grammar, learning, exercises, method, lesson, difficulty

Ma‘lumki, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda chet tillarni o‘qitishning yangi texnologiyasini ishlab chiqishga, intensivlashtirilgan usullardan keng foydalanishga alohida e‘tibor berilgan. Shu bois ham hozirgi kunda Respublikamizda chet tillarni o‘rganishga va o‘qitishga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Chet tillarini o‘qitish bo‘yicha qo‘yilayotgan talablardan kelib chiqib, ularni tezroq o‘rganishning yangi usullarini izlab topish va tadbiq etish- bugungi kunda chet tili o‘qituvchilarining oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Chet tilida leksikani o‘rgatishda asosiy masala so‘z materialini xotirada saqlab qolish bo‘lsa, grammatikani o‘rgatishdagi asosiy qiyinchilik-so‘zlarning shakllarini o‘zlashtirish va gapda so‘zlarni biriktirish usullarini egallab olishdan iboratdir. Grammatika ko‘nikmalariga o‘rgatish metodlari hozirgi kunda chop

qilingan va chop qilinayotgan metodik adabiyotlarda etarli darajada yoritilgan bo‘lib, chet tillarini o‘qitishning hozirgi zamon metodikasida o‘qitish jarayonida faqat o‘quv materiallari emas, balki tilni o‘rganish shart-sharoitlari, ayniqsa o‘rganuvchining tilni o‘zlashtirishga qo‘shgan hissasiga katta e‘tibor beriladi.

Ko‘pgina nemis tili o‘qituvchilarining e‘tirof etishlaricha, o‘quvchilarga grammatik qoidalarni o‘rgatish bir muncha qiyin kechadi. Bu borada ikki muammoga duch kelinadi:

1. O‘qituvchining grammatik qoidalarni qay tarzda tushuntirishi.
2. O‘quvchilarning dars paytida yoki uyda o‘qituvchi yordamisiz grammatik qoidalarni tushunishi va anglab etishi.

Shundan kelib chiqib, biz quyida chet tili grammatikasini o‘rgatishda va o‘rganishda nemis metodistlari tomanidan tavsiya qilingan uchta mashq turlariga va ularda grammatik qoidalarni qay yo‘sinda tushuntirilishiga ko‘proq to‘xtalmoqchimiz.

1. Retseptiv mashqlar

Bu mashq turida o‘quvchilardan produktiv faoliyat talab qilinmay, ularga faqatgina qoidani to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tanlash imkoniyati beriladi. Bunda o‘quvchilar qoidani o‘rganilayotgan tilda yoki o‘z ona tillarida shakllantirishlari mumkin.

Masalan:

- Wenn ein Satz mit einer Zeitangabe beginnt, dann steht das Verb an der zweiten Stelle.
- Wenn ein Satz mit einer Zeitangabe beginnt, dann folgt sofort danach das Subjekt.
- Wenn ein Satz mit einer Zeitangabe beginnt, dann kommt danach entweder das Subjekt oder das Verb.

2. Reproduktiv mashqlar

Bu mashq turida o‘quvchilarga qoidalar qisman beriladi va ular o‘quvchilar tomonidan to‘ldiriladi. Berilgan vazifani bajarishda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni oldini olish maqsadida, o‘quvchilarni juft bo‘lib ishlashlari tavsiya qilinadi .

-Wenn ein Satz mit einer Zeitangabe beginnt, dann steht das Verb

-Wenn ein Satz mit einer Zeitangabe beginnt, dann steht das Verb an der Stelle.

-Wenn ein Satz mit einer beginnt, dann steht das Verb an der zweiten Stelle.

-Wenn ein Satz mit einer Zeitangabe beginnt,

3. Produktiv mashqlar

Chet tilida grammatik materialni taqdim qilish ikki usul orqali amalga oshiriladi.

1.Deduktiv usul-qoidadan misolga

2.Induktiv usul-misoldan qoidaga

Produktiv mashqlar asosan misoldan-qoidaga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni bajarish orqali o‘quvchilarning o‘zlari grammatik qoidani misollar orqali topadilar va tushunib etadilar. Bu mashq turlarini bajarish orqali o‘quvchilarning bilimlari faollashtiriladi , mustaqil ishlash va mustaqil fikrlash malaka-ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Bunday o‘quv jarayonlarida asosan SOS-metodini (Sammeln-yig‘moq, Ordnen-tartibga solmoq,Systemasieren- sistemalashtirmoq) qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu metod talabalarni mustaqil ishlashga o‘rgatadi, nemis tili grammatikasi faniga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishda va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, chet til grammatikasini o‘zlashtirish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, kuzatuvchanlik, tahlil qilish qobiliyatini o‘stiradi va xotira hajmini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Hermann Funk, Michael Koenig. Grammatik lehren und lernen. Fernstudieneinheit1. Berlin/München: “Langenscheidt“, 1999.
- 2.Saidumar Saidaliev. Chet tili o‘qitish metodikasidan ocherklar.”Namangan”nashriyoti ,2004.